

AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING DOLZARBLIGI VA MAMLAKAT IQTISODIY O‘SISHINI TA’MINLASHDAGI ROLI

Niyozov Zuxur Davronovich

Samarqand iqtisodiyot va servis institute “Bank ishi” kafedrası doçenti

Karimova Aziza Mamadrizoevna

Samarqand iqtisodiyot va servis institute “Bank ishi” kafedrası doçenti

Maqsudov Orif Shakirovich

Samarqand iqtisodiyot va servis institute “Bank ishi” kafedrası assistenti

***Annotatsiya.** Mamlakat iqtisodiyotning barqarorligi fuqarolari qanchalik yuqori iqtisodiy jihatdan faollikka va moliyaviy savodxonlikka ega bo‘lsa, ularning iqtisodiy faoliyati, hayotning turli jabhalarida qabul qilayotgan qarorlari shunga mos tarzda samarali bo‘ladi. Ayniqsa, moliyaviy savodxonlik mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitining rivojlanishiga, tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga qulay imkoniyat yaratadi.*

***Kalit so‘zlar.** Moliyaviy savodxonlik, iqtisodiy tafakkur, tadbirkorlik, moddiy manfaatdorlik, rag‘batlantirish, iqtisodiy dastaklar, subsidiya olish va tijorat banklari kreditlaridan foydalanish, pullarni amonatga joylashtirish, bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish.*

KIRISH

Yangi O‘zbekiston Strategiyasida YIM hajmini 2022 yilgi 80,0 milliard dollardan 160 mlrd dollargacha, aholi jon boshiga esa 2,2 ming dollardan 4,0 ming dollarga yetkazish ko‘zda tutilgan. Shu paytgacha o‘rtacha yillik iqtisodiy o‘shish 5,0-

5,5 %ni tashkil yetgan bo'lsa, bundan keyin ushbu ko'rsatgich 10 %dan past bo'lmashligi shart. Ushbu natijalarga erishish maqsadida hukumatimiz tomonidan keng qamrovli, xalqimiz muhokamasidan o'tgan chora tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan. Ularning negizida iqtisodiy faoliyatda davlat ishtirokini qisqartirish, xususiy mulkchilikka tayanadigan tadbirkorlik faoliyati uchun shart-sharoitlar yaratish yotadi.

Iqtisodiyotning barqarorligi, aholi turmush farovonligining holati va muntazam o'shishi ko'p jihatdan fuqarolarning iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ongli ravishda munosabatda bo'lishi, iqtisodiy tafakkur va ko'nikmalarning rivojlanishiga bog'liq. Chunki mamlakat fuqarolari qanchalik yuqori iqtisodiy jihatdan faollikka va moliyaviy savodxonlikka ega bo'lsa, ularning iqtisodiy faoliyati, hayotning turli jabhalarida qabul qilayotgan qarorlari shunga mos tarzda samarali bo'ladi. Ayniqsa, moliyaviy savodxonlik mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitining rivojlanishiga, tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga qulay imkoniyat yaratadi.

O'RGANILGANLIK DARAJASI

Mamlakatimizda iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tartibga solishda bozor mexanizmlaridan foydalanish darajasi sezilarli ravishda ortib bormoqda. Yangi ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiy resurslardan foydalanishdagi tejamkorlik hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish kabi muhim jihatlarga ko'proq moddiy manfaatdorlik, rag'batlantirish, iqtisodiy dastaklarni ishga tushirish orqali yondashilmoqda.¹

Bularning barchasi esa iqtisodiyotimizni bozor tamoyillari asosida modernizatsiya qilish uchun asos bo'lmoqda. Biroq, shu o'rinda ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotda samarali va demokratik bozor tamoyillarini to'liq tarkib topishi inson omili, ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilarining iqtisodiy bilim va malakalari, ko'nikmalari darajasiga, aniqrog'i ularning iqtisodiy madaniyatiga ham bog'liq.²

¹ Вахабов А.В., Дустмухамедов О.С. Молиявий саводхонлик тушунчасининг назарияси асосларини такомиллаштириш Банклар ва молия бозори 2022 й. 5 (153)

² Barqarorlik va farovonlikning asosi SARAFSHON gaz.2023 y.19 oktyabr ILHOM VAFOEV iqtisodchi

Iqtisodiy madaniyatning zamon talabi darajasida shaklanishi va samarali amal qilishi esa har bir shaxsning moliyaviy savodxonlik darajasini taqozo etadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi PQ-3620-son qarorida “mahaliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda xorijiy mutaxasislarni jalb etgan holda axolining moliyaviy savodxonligini oshirish yzasidan tadbirlarni amalga oshirish”³ vazifalari belgilangan.

Albatta, shaxsning moliyaviy savodxonlik darajasining shakllanganligi, bir necha omillarga, xususan, yashaydigan hududi, shaxsning yoshi (ayrim hollarda hattoki jinsi) va undan kelib chiqqan holda hayotiy tajribasi, mulkka va tadbirkorlik xususiyatlariga egaligi, ma’lumot darajasi, hamda dunyoqarashi va qiziqishlariga ham bog‘liq.⁴ Shu o‘rinda ta’kidlash joizki shaharda o‘sib ulg‘aygan kishilarning ko‘pchiligi qishloq sharoitida yashashga tug‘ri kelganida, aniq hisob-kitoblarni amalga oshirib, qaysi mahsulotni eksa maksimal daromad keltirishini inobatga olgandan so‘ng tegishli qaror qabul qiladi. Biroq birgina hisob-kitoblar bilan natijaga erishib bo‘lmasligi shundaki agrotexnika, tajriba, soxani bilish va boshqa birqator omillar hab bilishlikni talab qiladi.

Shunga ko‘ra, hozirda jahonning aksariyat mamlakatlarida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bizning mamlakatimizda ham aholi moliyaviy savodxonligini ta’minlash va oshirish muhim vazifalardan biri bo‘lib, bu boradagi tizimli chora-tadbirlarni belgilash avvalo mazkur masalaning iqtisodiy mazmuni va iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashdagi o‘rnini ko‘rib chiqishni taqazo etadi.

O‘z nomidan kelib chiqqan holda, mazkur tushuncha **moliya** sohasidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, u bilan bog‘liq jarayon va voqealarni to‘g‘ri tushunishni anglatadi.

METODOLOGIYA; Demak, “**moliyaviy savodxonlik**” – aholining kundalik hayotdagi oddiy iqtisodiy voqea va jarayonlar (masalan kommunal xizmatlardan

³ Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'eicha qo'shimcta-ctora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi PQ-3620-son qarori.

⁴ З.Д.Ниёзов, А.М.Каримова Банк этикаси ўқув кўлланма Сам ДЧТИ 2022 йил

foydalanlik uchun to'lovlarni amalga oshirishdan boshlab, xususiy yoki davlat sektorida band bo'lish tanlovi, ish haqqini nafaqa olish bilan bog'lash va nisbatan murakkab jarayonlar (tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, uy-joyga ega bo'lish maqsadida davlatdan subsidiya olish va tijorat banklari kreditlaridan foydalanish, pullarni amonatga joylashtirish va boshqalarni qamrab oladi.

ASOSIY QISM. Ta'kidlash joizki moliyaviy savodxonlikning asosida inson turadi, zero mazkur jarayonni amalga oshirishdan asosiy maqsad ham uning hayot farovonligini oshirish va sifatini yaxshilash hisoblanadi. Biroq, buning uchun o'z ixtiyoridagi iqtisodiy resurslardan foydalanishda ro'y berishi mumkin bo'lgan voqea hodisalar, o'zi hamda jamiyat uchun manfaatli va samarali asosda foydalanish borasida etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Shu o'rinda Ikkinchi jahon urushidan ulkan yo'qotishlarga uchragan va ishlab chiqarish resurlari cheklanganligiga qaramasdan qisqa muddat ichida arslondek sakragan Yaponiya davlatini misol qilib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. AQSh qo'llab qo'llagani, qulay geografik joylashuv o'z yo'liga. Ammo eng zamonaviy texnologiyaga asoslangan iqtisodiy tizimni yaratish bilan bir qatorda uzoq yillar davomida dunyoning eng qudratli davlatlari bilan teng raqobat qila olishning asosi nimada degan tabiiy savol tug'iladi. Bizning fikrimcha aholi moliyaviy savodxon bo'lishi uchun mos sharoitlar yaratilishida. Gap shundaki, Yaponiyaning jahon bozorida hukmronlik etuvchi sanoat ajdarlari, - "Nissan", "Toshiba", "Soni" va boshqa yirik kompaniyalari Akcionerlik jamiyati shaklida faoliyat yuritadi, qimmatli qog'ozlar esa mamlakat xalqining qo'lida. Shu tarzda demokratik bozor tizimi shakllangan.

Mulkdorlik hissi esa obyektiv tarzda moliyaviy savodxonlikni taqozo etadi. Ko'rinib turibdiki aholi moliyaviy savodxonligi juda ulkan ijtimoiy ahamiyatga ega. Chunki, alohida shaxsning moliya borasidagi bilim va ko'nikmalari oxir-oqibat butun jamiyat iqtisodiy hayotining muvafaqqiyati va barqarorligini belgilab beradi. Aholining moliyaviy jihatdan savodsizligi nafaqat shaxsiy va oilaviy farovonlikka, balki butun moliyaviy tizimga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, tadbirkorlarning o'z daromadlari va xarajatlarini aniq tasavvur qilmasligi yoki pul

vositalarii aylanishini noto'g'ri rejalashtirilishi oqibatida meyardan ortiq kreditorlik va debitorlik qarzdorlik vujudga keladi. Eng achinarlisi aholi savodsizligi, moliyaviy firibgarliklar sonining oshishiga olib keladi.

Mamlakat aholisining moliyaviy savodxonligi darajasiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

1) mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik aholining ma'lumot, sog'liq va ish bilan bandlik darajalarining hosilasi hisoblanadi. Shunga ko'ra, ushbu tarkibiy qismlar qanchalik yaxshi ko'rsatkichlarni namoyon etsa, mamlakat aholisining moliyaviy savodxonligi darajasi ham shunchalik ijobiy ko'rsatkichga ega bo'ladi; Mamlakat aholisi bandligi darajasidan to'lovchanlik qobiliyati kelib chiqadi, ma'lumotga ega bo'lish hamda salomatlikning mustahkamligi shundan kelib chiqadi.

2) Aholi mentaliteti. Aholi mentaliteti, ya'ni, aqliy, hissiy, madaniy xususiyatlari hamda qadriyatlari majmui ham moliyaviy savodxonlik darajasining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Ayrim xalqlar o'z tabiatiga ko'ra ta'lim va madaniyatga, yangilikka intiluvchan bo'lib, ularning xatti-harakatida moliyaviy bilim va ko'nikmalarni muntazam oshirib borish asosiy o'rin tutadi. Ayni paytda, aholi mentalitetida mazkur masalalarga zid keluvchi jihatlardan mavjud bo'lgan holatlar ham uchraydi. (Qizbola oliy ma'lumotli bo'lishi shart emas, o'qiganlar ahvolini ko'rib turibmiz, qattiq o'qish shart emas, diplom qo'lga tiritilsa bo'ldi).

3) mamlakatning iqtisodiy siyosati. Mamlakatdagi iqtisodiy siyosat bunyodkorlik, yuksalish va taraqqiyot sari yo'naltirilgan bo'lsa, mazkur maqsadlarga erishishning asosiy sharti – aholining moliyaviy savodxonligi darajasiga ham katta e'tibor qaratiladi. Moliyaviy savodxonlik mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlarining takomillashib borishi kuchli raqobat muhitini keltirib chiqaradi, bu jarayon uz navbatida moliyaviy savodxonlikka bu'lgan talabni kuchaytiradi.

4) mamlakatdagi iqtisodiy ta'lim darajasi (iqtisodiy bilim va tadbirkorlik asoslari fanlari). Bizlar Singapur, Finlyandiya mamlakatlarining ta'lim tizimlaridan

andoza olish bilan bir katorda uzimizda mavjud ta'lim tizimini imkon kadar takomillashgan darajaga yetkazishimiz lozim. Misol uchun, maktablarimizda "Iqtisodiy bilim asoslari" fani 8 va 9 sinflarning o'quv rejalariga xaftaga 1 soat kilib belgilangan. Darslar cheklanganligi tufayli mashgulotlar nomutaxassislariga, ya'ni geografiya ukituvchilariga yuklangan. Bu xam mayli. Bitta dars davomida 8 sinf ukuvchisi bozor iqtisodiyotining ikki murakkab konunlari, ya'ni talab qonuni va taklif konunini uzlashtirishi lozim. Muayyan pedagogik stajga ega o'qituvchi sifatida aytishimiz mumkinki ushbu qonunlarni oliy o'quv yurti talabalarining sanokli qismi har tomonlama o'zlashtira oladi.

5) oxirgi yillarda iqtisodiy fanlar muhandislik, ijtimoiy soha yo'nalishidagi fakul'tetlardan olib tashlandi. Tasavvur qiling. Axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar iqtisodiy bilimlardan mahrum qilingan, shunga qaramasdan ularning aksariyati banklar, soliq va statistika organlarida ishga joylashadi. Balki rasmiy hisobotlardagi noaniqliklar, bank xodimlari va mijozlar (kredit ajratish), tadbirkorlar va soliqchilar o'rtasida tez-tez takrorlanib turadigan tortishuvlarning sababi ham moliyaviy savodxonlik yaxshi yo'lga qo'yilmaganligidadir.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Aholi moliyaviy savodxonligi – mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, yuqori o'sish sur'atlari, faol tadbirkorlik hamda to'liq bandlik darajasiga erishishning muhim sharti. Aholi moliyaviy savodxonligi jamiyatdagi har bir shaxsning iqtisodiy bilim, malaka va ko'nikmalar, qadriyatlarni yetarli darajada egallashi hamda o'z farovonligini ta'minlash imkonini beruvchi iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda ularga asoslangan holda to'g'ri yondashuvini ta'minlovchi sifat ko'rsatkichi hisoblanadi. Aholi moliyaviy savodxonligi darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, avvalo shaxs, u istiqomat qilayotgan hudud, qolaversa, butun milliy iqtisodiyotda barqarorlik va farovonlik darajasi shu qadar yuqori bo'ladi.

Aholi moliyaviy savodxonligi darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar turlituman bo'lib, ularning har biriga alohida e'tibor qaratish orqali tegishli chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi mazkur ko'rsatkichning samaradorligini ta'minlaydi. Mamlakat

iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi aholi moliyaviy savodxonlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, rivojlanganlik darajasidan qat'iy nazar, har bir mamlakat o'z iqtisodiyoti hamda aholi mentaliteti xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aholi moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish bo'yicha muntazam va tizimli chora-tadbirlarni ishlab chiqishi muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

¹ Вахабов А.В., Дустмухамедов О.С. Молиявий саводxonлик тушунчасининг назарияси асосларини такомиллаштириш Банклар ва молия бозори 2022 й. 5 (153)

¹ Barqarorlik va farovonlikning asosi SARAFSHON gaz.2023 y.19 oktyabr ILHOM VAFOEV iqtisodchi

¹ Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'eicha qo'shimcta-ctora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi PQ-3620-son qarori.

¹ З.Д.Ниёзов, А.М.Каримова Банк этикаси ўқув қўлланма Сам ДЧТИ 2022 йил